



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI


TOSHKENT VILOYATI
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar*



Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, %da



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1943,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 109,7 %ga yetdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususi tadbirkorlik, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	1 943,4	109,7	315,2	88,8	1 628,2	115,0
<i>Shaharlar:</i>						
<i>Nurafshon</i>	45,0	107,1	16,1	115,8	28,9	102,8
<i>Olmalik</i>	162,8	107,8	23,6	82,9	139,2	113,5
<i>Angren</i>	156,1	105,6	24,2	36,4	131,9	162,4
<i>Bekobod</i>	83,6	109,8	13,9	98,7	69,7	112,3
<i>Ohangaron</i>	51,6	114,6	6,3	6,6 m.	45,3	102,8
<i>Chirchiq</i>	105,1	107,4	28,2	94,8	76,9	113,0
<i>Yangiyo'l</i>	131,5	106,8	9,1	75,5	122,4	110,2
<i>Tumanlar:</i>			-			
<i>Oqqo'rg'on</i>	75,1	106,8	2,2	155,3	72,9	105,8
<i>Ohangaron</i>	25,6	107,8	2,3	49,3	23,3	122,1
<i>Bekobod</i>	40,8	110,5	2,2	33,2	38,6	127,2
<i>Bo'stonliq</i>	128,7	112,5	47,2	188,4	81,5	91,3
<i>Bo'ka</i>	72,9	109,7	4,1	68,4	68,8	113,8
<i>Quy Chirchiq</i>	32,4	110,3	1,8	103,7	30,6	110,7
<i>Zangiota</i>	240,5	114,6	41,7	105,5	198,8	116,7
<i>Yuqori Chirchiq</i>	60	109,4	10,2	103,6	49,8	110,7
<i>Qibray</i>	134,9	111,6	22,2	71,7	112,7	125,4
<i>Parkent</i>	72,5	109,3	4,1	77,9	68,4	112,0
<i>Piskent</i>	51,1	109,5	11,7	170,1	39,4	99,0
<i>O'rt Chirchiq</i>	24,1	107,4	1,2	156,0	22,9	105,7
<i>Chinoz</i>	48,4	109,5	6,0	49,5	42,4	132,1
<i>Yangiyo'l</i>	63,1	108,7	7,7	117,7	55,4	107,5
<i>Toshkent</i>	137,6	111,4	29,2	91,9	108,4	118,1

2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Ohangaron shahri (114,6 %), Zangiota (114,6 %) va Bo'stonliq (112,5 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hajmi, mlrd. so'm




Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Zangiota tumani 12,4 % bilan 240,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, O'rtaChirchiq tumani 1,2 % bilan 24,0 mlrd. so'mni tashkil etdi




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 943,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 15,0 %ga oshdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 83,8 % ulushiga to'g'ri keladi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 8,8 %ga o'sdi va 315,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 16,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha O'rtaChirchiq (99,6 %), QuyiChirchiq (99,4 %) va Bekobod (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,2 %ni tashkil etib, eng katta ulush Chirchiq shahar (9,0 %) hamda Bo'stonliq (15,0 %), Zangiota (13,2 %) va Toshkent (9,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

	Hajm, ming.so'm	2023- yil yanvarga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	643,0	107,7
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	815,7	103,6
Olmaliq	1 134,8	105,4
Angren	865,1	103,3
Bekobod	812,3	107,7
Ohangaron	1 256,8	112,9
Chirchiq	616,6	104,8
Yangiyo'l	1 570,3	103,3
<i>Tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	675,4	105,0
Ohangaron	232,7	105,8
Bekobod	248,1	108,7
Bo'stonliq	731,4	111,3
Bo'ka	546,3	107,9
Quyichirchiq	280,7	108,4
Zangiota	1 421,5	113,3
Yuqori Chirchiq	434,0	107,5
Qibray	774,5	110,6
Parkent	410,0	107,4
Piskent	498,6	108,0
O'rta Chirchiq	176,9	105,9
Chinoz	335,5	107,1
Yangiyo'l	318,3	106,5
Toshkent	703,6	108,3

2024- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 643,0 ming so'mni (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 107,7 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yangiyo'l shahar (1570,3 ming so'm), Olmaliq shahar (1134,8 ming so'm) va Zangiota (1421,5 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	1 96,8	127,8	59,3	140,3	137,5	123,1
Shaharlar:						
Nurafshon	0,7	85,9	0,7	85,9	-	-
Olmalik	15,6	190,6	4,2	135,2	11,4	224,4
Angren	6,9	1 6,9 m.	6,9	1 6,9 m.	-	-
Bekobod	14,6	2,6 m.	14,6	2,6 m.	-	-
Ohangaron	1,8	126,3	1,8	126,3	-	-
Chirchiq	4,8	143,8	4,8	143,8	-	-
Yangiyo'l	19,8	62,0	2,9	28,4	16,9	77,3
Tumanlar:						
Oqqo'rg'on	6,9	61,2	0,3	16,7	6,6	69,9
Ohangaron	-	-	-	-	-	-
Bekobod	9,5	7,1 m.	-	-	9,5	98,8
Bo'stonliq	19,8	74,9	0,4	48,7	19,4	702,8
Bo'ka	16,4	109,8	7,3	120,0	9,1	75,9
Quy Chirchiq	8,1	119,9	0,5	3,2 m.	7,6	102,8
Zangiota	8,9	172,4	0,3	4,1 m.	8,6	115,2
Yuqori Chirchiq	1,1	57,7	1,1	57,7	-	-
Qibray	17,3	2,3 m.	-	-	17,3	229,4
Parkent	13,1	134,9	4,9	102,4	8,2	166,6
Piskent	10,0	91,1	0,2	41,4	9,8	92,8
O'rta Chirchiq	-	-	-	-	-	-
Chinoz	14,2	2,6 m.	7,3	6,5 m.	6,9	159,4
Yangiyo'l	-	-	-	-	-	-
Toshkent	7,3	7,1 m.	1,1	254,2	6,2	10,6 m.



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari













2024- yilning yanvar oyida Toshkent viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 59,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (28,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>28,6 mlrd. so'm</p> 	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>6,4 mlrd. so'm</p> 	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>9,0 mlrd. so'm</p> 
<p>Tovuq go'shti</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p> 	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>3,6 mlrd. so'm</p> 	<p>Tuxum</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p> 
<p>Ziravorlar</p> <p>1,8 mlrd. so'm</p> 	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>1,2 mlrd. so'm</p> 	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p> 
<p>Tuzlamalar</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p> 	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p> 	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>

2024- yilning yanvar oyida, Toshkent viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 137,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 97,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar 18,8 mlrd. so'mni, otlar 21,2 mlrd. so'mni, parrandalar 0,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>58,8 mlrd. so'm</p> 	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>23,5 mlrd. so'm</p> 	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>14,9 mlrd. so'm</p> 
<p>Qo'ylar</p> <p>18,3 mlrd. so'm</p> 	<p>Otlar</p> <p>21,2 mlrd. so'm</p> 	<p>Echkilar</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p> 
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p> 	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p> 	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p> 
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p> 		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2024- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 99,0 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,3 %ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 79,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	99,0	110,3	20,4	111,7	78,6	109,9
shaharlar:						
Nurafshon	3,7	108,0	-	-	3,7	108,0
Olmaliq	19,6	111,2	10,2	86,4	9,4	160,8
Angren	6,3	110,7	0,5	103,4	5,8	111,4
Bekobod	3,1	112,1	-	-	3,1	112,1
Ohangaron	4,4	112,1	2,9	109,5	1,5	117,4
Chirchiq	9,9	111,4	4,5	2,1 m.	5,4	79,4
Yangiyo'l	4,6	109,9	-	-	4,6	109,9
tumanlar:						
Oqqo'rg'on	2,2	105,1	-	-	2,2	105,1
Ohangaron	1,0	111,7	-	-	1,0	111,7
Bekobod	1,2	109,7	-	-	1,2	109,7
Bo'stonliq	5,0	109,5	-	-	5,0	109,5
Bo'ka	1,5	106,5	-	-	1,5	106,5
Quyichirchiq	1,4	106,3	-	-	1,4	106,3
Zangiota	4,2	110,2	1,0	39,2 m.	3,2	84,1
Yuqorichirchiq	2,5	110,2	-	-	2,5	110,0
Qibray	11,3	110,9	-	-	11,3	110,9
Parkent	2,4	110,1	-	-	2,4	110,1
Piskent	1,7	106,5	-	-	1,7	106,5
O'rta Chirchiq	3,2	109,9	-	-	3,2	109,9
Chinoz	1,0	115,2	-	-	1,0	115,2
Yangiyo'l	3,5	107,6	1,3	104,2	2,2	109,7
Toshkent	5,3	110,3	-	-	5,3	110,3



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.


Savdo aylanmasi va ulushi



Ulgurji savdo hajmi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Toshkent viloyati bo'yicha 2024- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1859,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,0 %ga o'sdi.



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik hududlar Bekobod shahri (105,9%) hamda Yangiyo'l shahri (104,6 %) va Quyi Chirchiq (106,8 %) tumanlarida

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	1 859,30	104	236,8	42,6	1 622,50	131,7
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon sh.	3,1	104,5	-	-	3,1	104,3
Olmaliq sh.	48,5	104,7	6,1	66,4	42,4	114,2
Angren sh.	23,3	104,8	4	179,7	19,3	96,6
Bekobod sh.	16,9	105,9	3,1	6 3,5 m.	13,8	86,6
Ohangaron sh.	92	104,1	18,5	154,4	73,5	96,2
Chirchiq sh.	88,3	104,3	-	0,6	88,3	106,6
Yangiyo'l sh.	46,7	104,6	-	-	46,7	104,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	32,7	102,2	-	-	32,7	102,2
Ohangaron	7,2	102,5	-	-	7,2	102,1
Bekobod	6,4	103,3	-	1,7	6,4	174,0
Bo'stonliq	58,8	103,2	10,1	119	48,7	100,5
Bo'ka	2,6	103,0	-	-	2,6	102,5
Quyi Chirchiq	11,9	106,8	0,1	-	11,8	106,3
Zangiota	301,3	102,8	1,4	8,7 m.	299,9	102,4
Yuqori Chirchiq	46	104,7	0,7	-	45,3	103,2
Qibray	667,2	100,7	116,3	24,8	550,9	285,8
Parkent	26,3	102,1	-	-	26,3	682,4
Piskent	15,9	103,7	-	-	15,9	103,7
O'rta Chirchiq	35,7	103,3	5	68,9	30,7	112,5
Chinoz	71,2	191,3	55	5083,3 m.	16,2	43,4
Yangiyo'l	26,1	101,6	-	-	26,1	101,6
Toshkent	231,2	101,0	16,5	80,7	214,7	103,0